



International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.

INTERRELATIONSHIP BETWEEN DEMOGRAPHIC PROCESSES AND HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT

Djumabayeva Shaira Khalilayevna

Associate Professor, Ma'mun University, PhD in Economics

ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-6383-4543>

djshoira1987@gmail.com

Jumaniyozov Farxodjon Rajapboy ugli

Student of the Faculty of Economics, Ma'mun University

farhodjon.jumaniyozov02@gamil.com

Annotatsiya

Mazkur tezisda O'zbekistonda demografik jarayonlar, xususan tug'ilish, o'lim va tabiiy o'sish ko'rsatkichlari hamda tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligining dinamikasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda demografik o'zgarishlarning inson kapitali sifati va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida yoritilgan. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, mamlakatda demografik o'sish nafaqat miqdoriy kengayish, balki sifat jihatdan ham takomillashib bormoqda va bu jarayon inson kapitali rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir.

Kalit so'zlar: demografik jarayonlar, inson kapitali, tug'ilish darajasi, tabiiy o'sish, umr davomiyligi, demografik rivojlanish.

KIRISH

Zamonaviy global taraqqiyot sharoitida demografik o'sish va resurslar cheklanganligi o'rtasidagi ziddiyat dolzarb muammo sifatida saqlanib qolmoqda. Ushbu muammo ilk bor Thomas Robert Malthus tomonidan ilmiy asoslangan bo'lib, u aholi sonining geometrik o'sishi resurslarning arifmetik o'sishidan ustun kelishini ta'kidlagan [1]. Malthus nazariyasiga ko'ra, nazoratsiz demografik o'sish iqtisodiy resurslar tanqisligi, kambag'allik va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi, biroq zamonaviy iqtisodiy tafakkur ushbu yondashuvni kengaytirib, demografik o'sishni faqat muammo emas, balki muayyan sharoitlarda iqtisodiy imkoniyat sifatida ham talqin qiladi.

Xususan, inson kapitali nazariyasi doirasida T. Schultz va G. Becker tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlarga ko'ra, aholining son jihatdan o'sishi emas, balki uning sifati — ya'ni bilim darajasi, sog'ligi va malakasi iqtisodiy rivojlanishning hal qiluvchi omili hisoblanadi [2]. Ularning

fikricha, ta'lim va sog'liqni saqlashga kiritilgan investitsiyalar inson kapitalini shakllantirib, iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi.

Shu nuqtai nazardan, zamonaviy demografik jarayonlar ikki tomonlama xarakterga ega: bir tomondan, yuqori tabiiy o'sish resurslarga bosimni kuchaytirsa, ikkinchi tomondan, inson kapitali rivojlangan sharoitda u iqtisodiy o'sishning muhim drayveriga aylanishi mumkin.

Aholining tabiiy harakati ko'rsatkichlari mamlakat demografik rivojlanishining asosiy indikatorlaridan biri hisoblanadi. Tug'ilish va o'lim darajalari, shuningdek, ularning hududiy (shahar va qishloq) kesimdagi farqlari aholi sonining o'zgarish dinamikasini belgilab beradi. Ushbu ko'rsatkichlar nafaqat demografik jarayonlarni, balki inson kapitalining shakllanishi va sifatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi[3].

Quyidagi jadvalda O'zbekistonda 2010–2024-yillar davomida tug'ilish, o'lim va tabiiy o'sish ko'rsatkichlarining hududiy (shahar va qishloq) kesimdagi dinamikasi keltirilgan. Ushbu ko'rsatkichlar demografik jarayonlarning ichki tarkibiy o'zgarishlarini baholashda muhim empirik asos bo'lib xizmat qiladi[4].

1-Jadval.O'zbekistonda tug'ilish, o'lim va tabiiy o'sish koeffitsientlari (shahar va qishloq kesimida).

Yil	Tug'ilish	O'lim (qishloq)	O'lim (shahar)	Tabiiy o'sish (qishloq)	Tabiiy o'sish (shahar)
2010	22.0	4.5	5.1	17.5	16.9
2011	21.2	4.6	5.1	16.6	16.1
2012	21.0	4.6	5.2	16.4	15.8
2013	22.5	4.5	5.1	18.0	17.4
2014	23.3	4.5	5.2	18.8	18.1
2015	23.5	4.6	5.1	18.9	18.4
2016	22.8	4.6	5.1	18.2	17.7
2017	22.1	4.7	5.2	17.4	16.9
2018	23.3	4.4	5.0	18.9	18.3
2019	24.3	4.3	4.9	20.0	19.4
2020	24.6	4.7	5.6	19.9	19.0
2021	25.9	4.5	5.5	21.4	20.4
2022	26.2	4.6	5.0	21.6	21.2
2023	26.4	4.4	5.0	22.0	21.4
2024	24.9	4.2	5.2	20.7	19.7

Izoh: ko'rsatkichlar 1000 ta aholiga nisbatan (%) hisoblangan.

Jadval ma'lumotlari O'zbekistonda 2010–2024-yillar davomida aholining tabiiy harakati barqaror ijobiy tendensiyaga ega ekanligini ko'rsatadi. Tug'ilish darajasining 22,0% dan 26,4% gacha oshishi reproduktiv faollikning saqlanib qolayotganini bildiradi. 2024-yildagi biroz pasayish esa qisqa muddatli tebranish sifatida baholanadi va umumiy trendni o'zgartirmaydi.

O'lim ko'rsatkichlarining nisbatan barqarorligi sog'liqni saqlash tizimining institutsional mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Shahar va qishloq o'rtasidagi farq esa urbanizatsiya, ekologik bosim va turmush tarzi omillari bilan izohlanadi.

Eng muhim jihat shundaki, tabiiy o'sishning ijobiy saqlanib qolishi mehnat resurslari bazasining kengayishini ta'minlaydi. Biroq bu jarayonning iqtisodiy samaradorligi faqat miqdoriy emas, balki inson kapitali sifati (ta'lim va sog'liq darajasi) bilan belgilanadi. Shu bois demografik o'sish O'zbekiston sharoitida potensial iqtisodiy imkoniyat sifatida qaraladi[5].

Mazkur jarayonlar demografik nuqtai nazardan faqat miqdoriy o'sishni emas, balki sifat o'zgarishlarini ham yuzaga keltiradi. Aynan shu nuqtada inson kapitali nazariyasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. G. Becker va T. W. Schultz yondashuvlariga ko'ra, aholining son jihatdan o'sishi iqtisodiy rivojlanish uchun o'z-o'zidan afzallik yaratmaydi, bu jarayon ta'lim sifati, sog'liqni saqlash darajasi va mehnat bozori moslashuvchanligi bilan uyg'unlashgandagina iqtisodiy samaraga aylanadi.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekistondagi ijobiy tabiiy o'sish jarayoni kelgusida mehnat resurslari bazasini kengaytirsa-da, uning iqtisodiy samaradorligi inson kapitalining sifat darajasiga bevosita bog'liq bo'lib qoladi.

Aholining umr davomiyligi ko'rsatkichi demografik rivojlanishning muhim sifat indikatorlaridan biri bo'lib, u mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik, sog'liqni saqlash tizimi samaradorligi hamda aholi farovonligi darajasini aks ettiradi. Ushbu ko'rsatkichning o'zgarish dinamikasi inson kapitalining shakllanish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lib, u mehnat resurslarining sifat jihatdan rivojlanishini belgilaydi. Quyidagi diagrammada O'zbekistonda 2010–2024-yillar davomida tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi dinamikasi keltirilgan[6].

1-Rasm. O'zbekistonda tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi dinamikasi.




Diagramma ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi 2010–2024-yillar davomida barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Ushbu ko'rsatkichning 73,0 yoshdan 75,1 yoshga oshishi mamlakatda sog'liqni saqlash tizimi samaradorligining yaxshilanib borayotganini hamda aholi turmush darajasining ijobiy o'zgarayotganini anglatadi. Ayniqsa, 2018–2019-yillarda kuzatilgan o'sish sur'atlari tibbiy xizmatlar sifatining oshishi va profilaktik sog'liqni saqlash tizimining kengayishi bilan izohlanadi. 2020-yilda pandemiya ta'sirida qisqa muddatli pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, keyingi yillarda ko'rsatkichlar tez tiklanib, o'sish tendensiyasi qayta mustahkamlangan[7].

Mazkur jarayon O'zbekistonda inson kapitali sifatining yaxshilanib borayotganini ko'rsatadi. Chunki umr davomiyligining oshishi mehnatga layoqatli davrning uzayishi, malaka oshirish imkoniyatlarining kengayishi va iqtisodiy faollikning ortishi bilan bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, umr davomiyligining ijobiy dinamikasi demografik jarayonlarning miqdoriy o'sishi bilan bir qatorda ularning sifat jihatdan ham rivojlanib borayotganini tasdiqlaydi.

O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi 2022–2026" da ushbu yo'nalish kompleks yondashuv asosida belgilangan bo'lib, unda ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlarini birgalikda rivojlantirish nazarda tutilgan. Strategiyada kasb-hunar

ta'limini kengaytirish, maktabgacha va oliy ta'lim qamrovini oshirish hamda sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish orqali inson kapitali sifatini oshirish maqsad qilingan[8].

Shu nuqtai nazardan, umr davomiyligi va sog'liq ko'rsatkichlarini yaxshilash mehnat resurslarining iqtisodiy faolligini kuchaytiradi hamda inson kapitali samaradorligini oshiradi.

Demak, O'zbekistonda demografik jarayonlar miqdoriy o'sish bilan birga sifat jihatdan ham takomillashib bormoqda. Aholining tabiiy o'sishi va umr davomiyligining oshishi inson kapitali bazasini kengaytirsada, uning iqtisodiy samaradorligi ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarining rivojlanish darajasiga bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] T. R. Malthus, *An Essay on the Principle of Population*. London: J. Johnson, 1798.
- [2] G. S. Becker, *Human Capital*, 3rd ed. Chicago: University of Chicago Press, 1993.
- [3] T. W. Schultz, "Investment in Human Capital," *The American Economic Review*, vol. 51, no. 1, pp. 1–17, 1961.
- [4] Asian Development Bank, *Asian Development Outlook*, Apr. 2026.
- [5] O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, *Demografiya statistikasi (2025-yil ma'lumotlari)*. Toshkent, 2025.
- [6] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi 2022–2026," 2022.
- [7] United Nations Department of Economic and Social Affairs, *World Population Prospects 2024*.
- [8] World Bank, "Life Expectancy at Birth – Uzbekistan".